



Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

“SHUM BOLA” ASARIDA QO’LLANGAN GRADUONIMLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinonimlar hamda G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida uchragan graduonim so‘zлarni o‘rganib chiqamiz

Kalit so‘zlar: Lingvistik tahlil, graduonimlar, so‘zlarning darajalanishi, sinonimlar, badiiy asar;

Graduonimiya — leksemalarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so‘zga nisbatan belgilanadi. Masalan: “yosh” belgisiga ko‘ra (bosh so‘z ajratib ko‘rsatilgan): buzoqtana-g‘unajin-sigir; qiz-juvon-ayol, “Belgi”dagi darajalanish asosida: chiroylisuluv-ko‘rkam-zebo; “siljish sur’ati” belgisiga ko‘ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi. Graduonimiya hodisasini o‘z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uni turkiy (o‘zbek) tilining boylik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o‘zining Muhokamatul-lug‘atayn” asarida “yig‘lamoq” ma’noli so‘zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: yig‘lamsinmoq-ingramoq-singramoq-o‘kurmoq-hoy-hoylamaq kabi. Demak, Alisher Navoiyni shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo‘ladi.¹ Endi esa “Shum bola” asaridagi graduonimlarga diqqatimizni qaratsak:

Qaymoq bozorining burilishida, Mahkamaning boshida Ilhom samovorchining **kattakon** choyxonasasi bo‘lib, unda grammonfon chalinadi. [3-1] Uzun rasta, Juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarining boyvachchalari savdodan bo‘sh vaqlarida bu choyxonaga yig‘ilib mehmonxonalardek o‘rtada **katta** barkashlaridan qand-qurs, pista-bodom, murabbo-nisholda, obi non, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqhashlashib o‘tirishardi. [3-1] Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, **epchil** yigit edi. [3-1] U qirq-qirq besh yoshlar chamasidagi qorachadan kelgan, xushqomad qalam qosh **chaqqon** bir xotin edi. [3-4] O‘sha yillarda Toshkentda shunaqa ham jinni ko‘p ediki, sanab sanog‘iga yetolmaysiz: Malla **jinni**, Karim **jinni**, Mayramxon, Xolparang **jip-jinni**, Tojixon, Juft kaptar, Olim jinni, Eshon oyi, Avaz jinni va boshqalar.... [3-4] Ketmonning temirtersaklarni bir simdan o‘tkazib, boshiga kiyib yurar edi. [3-5] -Labbay, mulla aka, choymi, chilimmi? -deyardi-da, darrov bir qo‘lida kichkina choynak, ikkita **kichkina** xitoy piyola yo bo‘lmasa yarqirab turgan kattakon mischilimning sarxonasiga tamaki bosib, ustiga cho‘g‘ qo‘yib, bir-ikki quldiratib tortib, pishtib, kashandaning xizmatiga yugur edi. [3-4] Bizning mahallamiz **kichkinagina** bo‘lsa ham gavjum, Karim qori degan gazlamafurush, Yoqub qovoq degan mumfurush, Abdullaxo‘ja degan bo‘yoqfurush boylarni hisobga olmaganda, qolganlari bosmaxona va qandalotxona (konditerskiy) ishchilar edi. [3-8] Bu kasb menga **ko‘p** ma‘qul tushdi. [3-17] Yegulik-ichgulik istagandek **mo‘l**, yomg‘irdek yog‘ilib kelib turadi. [3-50] Eshonoyim qaychi bilan eshakning har ikkala qulog‘ining uchidan **ozgina-ozgina** qirqib qon chiqardila. [3-56] **Salgina** bosiq, **salgina** o‘yinqaroq bo‘lmasam, hammaning ham nonini tuyu qilib bera olar edim. [3-68]

O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR:

Kaufman(ruscha)- Turkiston general-gubernatorlaridan biri.

Xinzir(inglizcha)- to‘ng‘iz.

¹ Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent-2005



Xirsxona-ayiqxona.

Kepchik(ruscha)-g‘alla yelpish, shopirish uchun ishlataladigan charm qoplangan gardish.

Innamil hafzato‘n tahorato‘n hallolun- bu iborani domla o‘zi to‘qib, “Hofuzda tahorat qilsa halol bo‘laveradi” demoqchi bo‘ladi.

Muso asosi (arabcha) -afsonaga ko‘ra Muso payg‘ambarning mo‘jizali kuchga ega bo‘lgan hassasi.

G‘ofil(arabcha)-g‘aflat qolgan, bexabar.

Bebiliska-oson pul topishni ifodalarydig'an bu so‘zning chiqib kelishi shunday. Kosiblarning so‘zaniga o‘tkazib qo‘yiladigan kalta ip- biliskaga pishitilgan ipni ular shunday shuning uchun ishlataladigan qiladi. Qunti yetmagan shogird va kosiblar ipni biliskaga ulab o‘tirmay, so‘zanadan o‘tkazib chok tikaveradilar. Bunday sifatsiz ish orqasida topilgan pul bebiliska, oson topilgan pul deyiladi.

Sangob- ko‘nchilarning teri ivitadigan xumi.

Antal hodi antal haq, laysal hodi illo hu- Sen to‘g‘ri yo‘lga boshlovchisan, sen haqsan, undan boshqa rahbar yo‘q.

Kontekstual sinonimiya — til birligi sifatida o‘zaro sinonim bo‘lmagan leksemalarning ma’lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Masalan, chinni va kosa so‘zlarining leksik ma’nolari bir xil emas: chinni “idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlataladigan oq loy”ni, kosa esa “piyoladan kattaroq idish”ni ataydi. Demak, biri “material”ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan “idish”ni anglatadi, shunga ko‘ra ular sinonim hisoblanmaydi, ammo ayrim shevalarda chinni leksemasi “kosa” ma’nosida ham qollanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u kosa leksemasining sinonimiga aylanadi. Masalan, Xoljonbika... xitoyi chinnida may olib keldi Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa muallif leksemasining nutqdagi qo‘llanishida ko‘p uchraydi. Ma’lumki, muallif leksemasining sememasini tarkibida “yozuvchi”, “shoir”, “hikoyanavis”, “olim”, “ixtirochi” kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, uning ma’no ko‘lami ancha keng. Kontekst ichida esa muallif sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi.²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimova H Semasiologiya -Toshkent: 2008.
2. Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent-2005.
3. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati – Toshkent:Yangi asr avlod-2007.
4. G‘ G‘ulom Shum bola Toshkent “Yangi nashr” 2019

² Jamolxonov H Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Toshkent-2005.